

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELINING DARS JARAYONLARIDAGI SAMARADORLIGI

Anvarova Saodat Sayfulla qizi  
CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Bu maqolada 4K modelining boshlang'ich sinflardagi darslarda samaradorligi o'rganiladi. 4K modeli darslarni qiziqarli tashkil etishni, metodlar orqali tez va oson natijaga erishishni ta'minlaydi. Yangicha g'oya, yangicha fikrlar bilan yondashuvni talab etadi.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik fikrlash, innovatsion texnologiyalar, kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy ta'lim tizimi.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОДЕЛИ 4К В ПРОЦЕССАХ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Анварова Саодат Сайфулла кызы  
Факультет начального образования CHDPU  
студент факультета начального образования

**Аннотации:** В этой статье рассматривается эффективность модели 4к в начальных классах. Модель 4к обеспечивает интересную организацию уроков и обеспечивает быстрые и простые результаты с помощью методов. Новая идея требует подхода с новыми мыслями.

**Ключевые слова:** творчество, сотрудничество, коммуникация, критическое мышление, инновационные технологии, компетентность, начальное образование, современная система образования

## THE EFFECTIVENESS OF THE 4K MODEL IN TEACHING PROCESSES IN PRIMARY EDUCATION

Anvarova Saodat Sayfulla kizi  
CHDPU Faculty of Primary Education

student of the faculty of primary education

**Annotation:** This article discusses the effectiveness of the 4k model in primary schools. The 4k model provides an interesting organization of lessons and provides quick and easy results with the methods. A new idea requires an approach with new thoughts.

**Keywords:** creativity, collaboration, communication, critical thinking, innovative technologies, competence, primary education, modern education system.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrda 726-son qaroriga muvofiq bugungi kunda darslik va o‘quv-metodik majmualar sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortishi ularni yaratish jarayoniga matbaa sohasining so‘nggi yutuqlarini qo‘llash, o‘quvchilarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz, foydalanish uchun qulay bo‘lgan matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu faoliyatni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoniga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus hamda professional ta’lim sohasida foydalaniladigan matbaa mahsulotlarining xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni belgilash, foydalanuvchilarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, shuningdek, nashr etilayotgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning matbaa sifatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida yanada oshirish maqsadida hamda ushbu farmonning 1-bandiga muvofiq dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilab qo‘yilgan[1]. Ushbu bandga ko‘ra va 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv metodologiyasi (bu-bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi) inobatga olinib 2023-2024-o‘quv yilida 1-4 -sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab o‘quv darsliklari yaratildi.

Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish va yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

4K modelining boshlang'ich sinf darslaridagi samaradorligi haqida so'zlashdan oldin, "4K modeli o'zi nima?" degan savolga javob topaylik.

"4K modeli" deganda, odatda ta'limning sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan to'rt asosiy komponentni anglatadi. Bu model, ta'lim jarayonini yaxshilashda quyidagi to'rt omilga asoslanadi:

**Kreativlik** – o'quvchilarning ijodkorlik va yangicha fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. O'quvchilar har bir fanga, yo'nalishga ijodiy yondashishni o'rganadilar.

**Kollaboratsiya** – o'quvchilarning dars jarayonlarida, umuman olganda hayotda ham jamoaviy ish olib boorish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu komponent o'quvchilarning o'zaro samarali muloqotga kirishishida va bag'rikenglik kabi tushunchalarni shakllantirishda juda ahamiyatlidir.

**Kommunikatsiya** – muloqot qilish qobiliyati bo'lib, o'quvchilarni bir-birini eshitishga va tushunishiga yordam beradi. Bu orqali ular fikr almashishadi.

**Kritik fikrlash** – o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirdi, muammolarni muhokama qilishga o'rgatadi, o'z fikriga ega bo'lishni va bu fikrni isbot eta olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bu to'rt kompetensiya bir-birini to'ldirib, mukammal dars jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar esa

kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

4K modeli ta'lim jarayonida o'quvchilarning barcha jihatlarini birgalikda rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni anglatadi. Bu model o'quvchilarga nafaqat akademik bilim, balki muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni taqdim etishga harakat qiladi. Bu modelning afzalliklari o'quvchilarning barcha jihatdan mukammal rivojlanishiga yordam beradi.

4K modeli o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va o'z rivojlanishiga mas'uliyatli yondashuvni rivojlantiradi. 4K modeli yuzaki tushunishdan tashqariga chiqadi, tanqidiy fikrlash va tahlilni targ'ib qiladi. O'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni o'zlashtirishga imkon beradi.

#### ***“4 rangli qog'oz” usuli***

**Tavsifi:** Bu usul o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmalarini **shakllantiradi**. 4 xil rangli qog'ozga o'z fikrlarini yozish orqali matn yuzasidan 4 xil topshiriqni bajaradilar. Bunda o'quvchilarning matn mazmunini to'liq o'qib tushunganligi va uning mazmuniga mos hikmatli so'z ayta olishi, matnga ijodiy yondashishlari va mavzu yuzasidan olingan xulosalarni bayon qila olishlaridan bilib olish mumkin bo'ladi.

**Erishiladigan natija:** O'quvchilar bu usul orqali tanqidiy fikrlashni, topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lib amalga oshirishni, masalalarni yechish qobiliyatini shakllantiradilar.

Biz 4K modelini darslarda qo'llash orqali o'quvchilarga savollar berish yoki muammoni taqdim etish orqali ularni faol fikrlashga undashimiz mumkin. Darslar davomida o'quvchilarga amaliy mashqlar orqali o'zlarining kompetensiyalarini namoyish etish imkoniyatini yaratishimiz mumkin. Masalan, agar o'qituvchi matematika **yoki fan darsini** o'tayotgan bo'lsa, u o'quvchilarga kritik fikrlash orqali ma'lumotlarni tahlil qilishni, kommunikatsiya orqali amaliy mashqlarni bajartirishni, kreativlik orqali muammolarni ijodiy yechishni va kollaboratsiya orqali guruhda ishlashni taklif qilishi mumkin. 4K modeli orqali dars o'tishning samaradorligi o'quvchilarni faollashtiradi, ularning o'qishdagi motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” O.M.Jabborova, Z.A.Umarova, L.G.Babaxodjayeva
2. Azizxo'jayeva N.M. (2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat – T.: “Fan,61-69-b.

3. Ziyomammedov B. (2002) Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Chinor ENK”
4. Mavlonova P. A. [va boshq](2016) Pedagogika. Darslik. – T.:<<Navro‘z>>, 105-b
5. Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinflarga ta‘lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 581-583.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHLTLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
7. Fullan, M. (2013). 21-asr ta‘lim tizimida nima uchun kurashishga arziydi? O‘qituvchilar kolleji matbuoti.